

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li

Alfraganus University dotsenti, PhD

Ollayorov Behruzбек Sardor o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish materiallari korxonalarida boshqaruvni samaradorligini qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshishi asosida qarab chiqildi. Mavjud ma‘lumotlardan ma‘lum bo‘lishicha mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarishning real qiymati bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari hajmi, boshqaruv usullari, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv muammolari, boshqaruv turlari, innovatsion boshqaruv, umumiy sifat boshqaruvi, boshqaruv jarayonlari.

Аннотация

В Республике Каракалпакстан эффективность управления на предприятиях по производству строительных материалов рассмотрена через призму увеличения объёмов производства строительных материалов. На основе имеющихся данных разработаны предложения и рекомендации по реальной стоимости производства строительных материалов в регионе.

Ключевые слова: объём строительных материалов, методы управления, механизм управления, проблемы управления, виды управления, инновационное управление, всеобщее управление качеством, управленческие процессы.

Abstract

In the Republic of Karakalpakstan, the effectiveness of management in construction material enterprises is examined in relation to the increase in production volumes. Based on available data, proposals and recommendations have been developed regarding the real value of construction material production in the region.

Keywords: volume of construction materials, management methods, management mechanism, management problems, types of management, innovation management, total quality management, management processes.

KIRISH

Qurilish sohasini rivojini ta‘minlash mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi, ya‘ni birinchidan aholini birlamchi ehtiyojlaridan bo‘lgan uy-joy bilan ta‘minlashga xizmat qiladi, ularni bugungi zamon talablari asosida qurilgan uylarda istiqomat qilish imkoniyatini yaratib bersa, ikkinchidan iqtisodiyotda ishlab chiqarish uchun zaruriy sharoitlarni, bino va inshootlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tabiiyki, qurilish sohasini rivojlanishi bevosita qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ularni sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish bilan bog‘liq hisoblanadi. Mamlakatda sifatli qurilish materiallarini ishlab chiqarish, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda samaradorlikni oshirish tannarxni kamaytirish va sifatni oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruv jarayoni qadimgi davrlardanoq kishilik faoliyatining muhim ishlab chiqaruvchi qismi bo'lib sanalib kelingan. Boshqaruv jarayoni dastavval ishlab chiqarish usuli ta'siri ostida shakllandi, XVIII asrdan boshlab bozor munosabatlarining rivojlana borishi bilan shakllandi. Menejment muammolariga doir ko'plab ilmiy asarlar muallifi bo'lgan taniqli amerikalik tadqiqotchi-olim M.Meskon tarixda boshqaruv bo'lisha jami uchta dastak mavjud bo'lib keldi deb hisoblaydi.[1]

Birinchi bosqich XX asr boshlarida F.Teulor (AQSH) ning "Ilmiy boshqaruv tamoyillari" kitobi dunyo yuzini ko'rishi bilan boshlangan.[2] Bu asarda F.Teulor birinchi bor boshqaruv tizimini tashkil etishdagi ilmiy yondashuvlar va tamoyillarni bayon qilib bergan edi.

Ikkinchi bosqich mumtoz (ma'muriy) boshqaruv maktabining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, uning asoslari A.Fauol [3], L.Urvik [4], D.Muni[5] kabilar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Bu davrda menejment funksiyalari va tamoyillarini nazariy o'rganish zarurati anglab etildi.

Shuning uchun AQSH dagi, jumladan, Germaniya, Finlyandiya, Fransiyadagi qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasi bir smena davomida ish yuritish tartibi bilan mashhurdir. [6]

Shu bilan birga, Yevropa qurilish bozorini baholashda turli xil qarashlar mavjuddir. Misol uchun, Ekspert Market Research kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra Yevropa qurilish bozori hajmi 2022 yilda 2,62 trln dollarga yetdi deb baholangan bo'lsa, Research&Markets kompaniyasi keltirgan ma'lumotlarga mos holda bu hajm 3,02 trln dollar deb hisoblanadi.

METODOLOGIYA


Qurilish materiallari sanoati rivojlanishining istiqbollari o'ziga xos jihatlarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keltirib o'tilgan natijalarni qurilish korxonalarida boshqaruvni samarali tashkil qilinishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni, boshqaruvni samarali tashkil qilish mahsulot ishlab chiqarish hajmini hamda sifatini oshirishda namoyon bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish materiallari korxonalarida boshqaruvni samaradorligini qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshishi asosida qarab chiqildi. Mavjud ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarishning real qiymati, ya'ni 2005 yil narxlarida ifodalangan qiymati umumiy hisobda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada biroz beqaror ekanligini kuzatish mumkin (1-rasm).

Olingan natijalarga ko'ra 2005-2014 yillarda 2009 va 2012 yillardagi pasayishni hisobga olmaganda mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarish real hajmining barqaror o'sish sur'ati ta'minlangan. Tabiiyki 2008 yilda sodir bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatimizda ham muhim ko'rsatkichlarning

pasayishiga sabab bo'ldi. Shu sababda 2009 yilda sodir bo'lgan pasayishni korxonalaridagi boshqaruv samaradorligini pasayishi sifatida emas balki tabiiy hol sifatida qarash lozim. Asosiy e'tiborni 2013 va 2014 yillarga qaratish lozim, chunki ikki yil ichida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi ikki barobardan oshiq miqdorga ko'paygan. Biroq, ushbu ijobiy natijani saqlab qolish imkoniyati ta'minlanmagan, natijada keyingi ikki yildagi pasayish mahsulot ishlab chiqarish hajmini deyarli 2012 yildagi holatga yaqinlashtirgan.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan qurilish materiallarining real qiymati dinamikasi (mlrd.so'm)¹

Shuningdek, 2017 va 2018 yillarda “Karakalpak sement” MChJda yangi imkoniyatlarni bosqichma-bosqich ishga tushirilishi mazkur yillarda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq, 2019 yilda oldingi yilga nisbatan pasayish kuzatilgan bo'lsa, 2020 yilda deyarli o'zgarish kuzatilmagan, faqat 2021 yilda o'sish kuzatilgan. Umumiy hisobda 2022 yilga kelib 2018 yildagi ko'rsatkichdan biroz yuqori qiymatga ega bo'lish imkoniyati ta'minlangan bo'lsada, 2014 yildagi darajaga erishila olmagan.

Mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib maqbul miqdoriy usullar va modellarni tanlagan holda keyingi yillar uchun mintaqada qurilish sanoati mahsulotlarini yetishtirishning real qiymatini prognoz ko'rsatkichlari hisoblanildi. Bu kelgusi davrda korxonalarda boshqaruvni samarali tashkil qilinishi yoki qilinmasligi bo'yicha xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishning keyingi yillar uchun prognoz qiymatlarini hisoblash uchun turli modellar qarab chiqildi. Grafik usulini tahlili

¹ Muallif ishlanmasi

natijalaridan malum bo'lishicha, mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmida tasodifiy o'zgarishlar kuzatilsada, umumiy hisobda o'sish tendensiyasiga ega. Buni hisobga olgan holda dastlab trend modeli bo'yicha olingan natijalarga e'tibor qaratib o'tildi.

$$CM = 4,92 + 1,36 * t$$

Bu yerda, CM – Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan qurilish materiallari hajmini real qiymati mlrd. so'm (2005 yil narxlarida).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan qurilish materiallari hajmini real qiymatini prognoz ko'rsatkichliri hisoblash uchun ishlab chiqilgan trend modeli natijalari¹

Model 14: OLS, using observations 2005-2022 (T = 18)

Dependent variable: CM

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	4.92495	1.86865	2.636	0.0180	**
time	1.36244	0.172634	7.892	<0.0001	***
Mean dependent var	17.86809		S.D. dependent var	8.154297	
Sum squared resid	231.0298		S.E. of regression	3.799916	
R-squared	0.795616		Adjusted R-squared	0.782842	
F(1, 16)	62.28419		P-value(F)	6.61e-07	
Log-likelihood	-48.51047		Akaike criterion	101.0209	
Schwarz criterion	102.8017		Hannan-Quinn	101.2665	
rho	0.301465		Durbin-Watson	1.393694	

Ishlab chiqilgan trend modeli natijalari ishlab chiqarilgan qurilish materiallari real qiymatini vaqt bilan bog'liq ekanligini asoslamoqda. Ya'ni, ushbu ta'sirni ifodalovchi koeffitsient Styudent mezoni bo'yicha adekvat bo'lib, ehtimollik ko'rsatkichi 0,0001 dan kichik qiymatga ega bo'lmoqda. Tasodifiy o'zgarishlarning ancha yuqori ekanligi determinatsiya koeffitsientini 0,80 ni tashkil qilishga sabab bo'lmoqda, biroq mazkur ko'rsatkich ishlab chiqilgan modeldan prognoz qiymatlarini hisoblash uchun yetarli ekanligini ta'kidlash mumkin. Bundan tashqari Fisher mezoni natijalari ham ishlab chiqilgan modelning aniqlangan barcha koeffitsientlari belgilangan talablar darajasidaligini asoslamoqda (1-jadval). Bu kabi modellarda asosiy muammolardan biri sifatida avtokorrelyatsiya qaraladi. Buni hisobga olgan holda Durbin – Uatson statistikasi natijalariga e'tibor qaratib o'tildi. Olingan natijalarga ko'ra Durbin-Uatson statistikasi qiymati 1,39 ni tashkil qilimoqda.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra ushbu statistikaning quyi chegarasi 1,16 va yuqori chegarasi 1,39 ni tashkil qilmoqda. Aniqlangan qiymatning yuqori chegara bilan

¹ Muallif ishlanmasi

deyarli bir xil qiymatga egaligini hisobga oladigan bo'lsak, avtokorrelyatsiya muammosini yo'q deb qabul qilish mumkin.

Natijalar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar ishlab chiqilgan model asosida ko'rsatkichning keyingi davr uchun prognoz qiymatlarini hisoblash maqsadga muvofiqligini asoslamoqda. Mazkur model asosida hisoblanilgan prognoz natijalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (2-jadval). Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko'ra, trend modeli bo'yicha har yili ishlab chiqarilgan materiallari real qiymati 1,36 milliard so'mga oshadi. Natijada, mashtab samarasi bo'yicha qiymatning oshib borishi hisobiga o'sish sur'atini pasayishi kuzatiladi. Tasodifiy o'zgarishlar hisobiga 2023-yilda o'sish sur'atini 9,3 foizga teng bo'lishi ta'minlansa, keyingi yillarda sur'atning barqarorlashishi kuzatiladi. Faqat, yillik o'sish hajmi o'zgarmagan holda jami miqdorining oshishi hisobiga o'sish sur'atini pasayish tendensiyasiga ega bo'lishi kuzatiladi

2-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan qurilish materiallari hajmini real qiymatini trend modeli asosida hisoblanilgan prognoz ko'rsatkichliri¹

For 95% confidence intervals, $t(16, 0.025) = 2.120$

Yillar	Prognoz	o'sish sur'ati	Standart xatolik	95 foizlik interval
2023	30,81	109,30	4,23	(21,8344, 39,7880)
2024	32,17	104,42	4,30	(23,0489, 41,2984)
2025	33,54	104,23	4,38	(24,2513, 42,8209)
2026	34,90	104,06	4,46	(25,4422, 44,3549)
2027	36,26	103,90	4,55	(26,6223, 45,8997)

Ya'ni, 4,4 foizdan 3,9 foizga qadar pasayadi. Umumiy hisobda keyingi besh yilda ishlab chiqarilgan qurilish materiallari hajmini real qiymati 1,29 barobarga oshishi ta'minlangani holda 2027 yilda 36,26 milliard dollarga yetadi.

Ko'rsatkichda tasodifiy o'zgarishlarning nisbatan yuqori ekanligi trend modelga alternativ sifatida tasodifiy o'zgarishlarni hisobga olish imkoniyatini beruvchi hamda vaqtli qatorlarni prognozlashda keng qo'llaniladigan ARIMA modelining shaklini tanlagan holda prognoz qiymatlari hisoblanildi. Ya'ni, yuqorida foydalanilgan trend modeliga tasodifiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda qarab chiqildi va quyidagi modelga ega bo'lindi.

$$SM_t = 4,92 + 0,76 * \varepsilon_{t-1} + 1,36 * t$$

Mintaqada qurilish materiallarini ishlab chiqarish nafaqat korxonada boshqaruvni samarali tashkil qilish balki mahsulotga bo'lgan talabdagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq hisoblanadi. Bundan tashqari qurilish materiallari ishlab chiqarish mintaqada sanoatning taraqqiyotiga ham bog'liq yoki bog'liq emasligini aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tildi. Natijada omillar tahlil asosida mintaqada qurilish

¹ Muallif ishlanmasi

materiallari ishlab chiqarishning prognoz qiymatlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Keltirib o‘tilgan omillar ta‘sirini baholash uchun quyidagi modellar ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmiga sanoat va qurilish ishlari ta‘sirini baholash natijalari¹

№	Model	T statistika	Determinatsiya koeffitsienti	Durbin-Uatson statistikasi
1	$CM = IP^{-0,30} * CW^{0,84}$	$b_1=-4,04$ $b_2=10,27$	0,99	1,94
2	$CM = 0,51 * CW^{0,63}$	$b_0=-2,43$ $b_1=12,57$	0,91	1,46
	$CM = 0,16 * IP^{0,76}$	$b_0=-2,03$ $b_2=5,15$	0,62	0,69

Bu yerda, *IP* - Qoraqalpog‘iston Respublikasida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini real qiymati mlrd. so‘m (2005 yil narxlarida). *CW* - Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmini real qiymati mlrd. so‘m (2005 yil narxlarida).

Ishlab chiqilgan birinchi model natijalariga ko‘ra aniqlangan barcha koeffitsientlar Student mezonini bo‘yicha adekvat, biroq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini salbiy ta‘sirga ega bo‘lishi nazariy va amaliy jihatdan mos emasligi aniqlanildi. Amalga oshirilgan korrelyatsion tahlili natijalariga ko‘ra sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va amalga oshirilgan qurilish ishlari orasida yuqori korrelyatsion bog‘liqlik (0,92) mavjudligi aniqlanildi. Shu sababdan keltirib o‘tilgan ikkala omilni bitta modelga kiritish multikolleniarlik muammosini keltirib chiqaradi. Natijada, ta‘sirlarni aniqlab baholash imkoniyati yo‘qoladi.

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmini taklif qilinayotgan modellar bo‘yicha hisoblanilgan prognoz ko‘rsatkichlari²

Yillar	Lag model			ARIMA (0 1 1) model		
	prognoz	o‘shish sur‘ati	standart xatolik	prognoz	o‘shish sur‘ati	standart xatolik
2023	690,572	106,10	30,3291	689,424	105,92	29,4697
2024	731,094	105,87	38,2686	723,518	104,95	53,0894
2025	772,261	105,63	42,2724	757,612	104,71	69,0544
2026	813,924	105,39	44,4735	791,706	104,50	81,9667
2027	855,968	105,17	45,7268	825,8	104,31	93,1051

Keltirib o‘tilganlarni hisobga olgan holda har bir omilning ta‘siri alohida alohida qarab chiqildi. Taqdim qilingan mezonlar aniqlangan koeffitsientlar adekvatligini hamda modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini asoslamoqda. Faqat ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini baholash bo‘yicha olingan natijalarda Durbin-Watson statistikasi avtokorrelyatsi muammosi mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar ishlab chiqarilgan sanoat

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

mahsulotlarini qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini baholash imkoniyati bermadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif qilinayotgan modellar bo'yicha hisoblanilgan prognoz natijalariga ko'ra keyingi yillarda bajarilgan qurilish ishlarini barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanadi. Birinchi variant bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1,31 barobarga oshishi kutilsa, ikkinchi variant bo'yicha 1,27 barobarni tashkil qiladi. Bundan tashqari birinchi variant bo'yicha olingan natijalar nisbatan barqaror, ya'ni o'sish sur'ati 6,1 foizdan 5,1 foizga qadar kamaygan bo'lsa, ikkinchi variantda bu qiymat 5,9 foizdan 4,3 foizga qadar kamaygan. Shuningdek, lag modeli bo'yicha standart xatolik 30,3 dan 45,7 gacha oshgan bo'lsa, ARIMA (0 1 1) modelida 29,5 dan 93,1 gacha oshganligi aniqlanildi. Bundan ko'rinadiki, lag modelining ishonchlilik darajasi va uning asosida ishlab chiqilgan prognoz natijalarining barqarorlik darajasi nisbatan yuqori va mazkur modeldan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taklif qilinayotgan lag modeli bo'yicha keyingi besh yilda mintaqada bajarilgan qurilish ishlari hajmini o'rtacha o'sish sur'ati 5,6 foizni tashkil qilishi aniqlanildi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishda beqarorlikning asosiy sabablari korxonalarini dastlabki bosqichda samarali faoliyat olib borishi, ammo keyingi yillarda pasayishlarning vujudga kelishi bo'lmoqda. Fikrimizcha qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda boshqaruvchan samarali tashkil qilish va tasodifiy o'zgarishlarni bartaraf etish keyingi yillarda soha taraqqiyotini ta'minlashning muhim vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Майкл Мескон, Майкл Альберт, Франклин Хедоури. “Основы менеджмента”, перевод с английского общая редакция и вступительная статья доктора экономических наук Л.И.Евченко, Академия народного хозяйства при правительстве Российской Федерации, Москва, Издательство «ДЕЛО», 1997.

2. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента / Ф.У. Тейлор. Пер. с англ. - М.: Контроллинг, 1991. - 104 с.

3. Анри Файоль. Общее и промышленное управление. Перевод на русский язык: Б. В. Бабина-Кореня. - М., 1923. // Эл. публикация: Центр гуманитарных технологий. - 28.08.2012.URL: <https://gtmarket.ru/library/basis/5783>.

4. Урвик Л. Элементы администрации // Кравченко А. И. История менеджмента. Москва: Академический проект, 2002. С. 231–265.

5. Mooney J. D., Reiley, A. C. Onward Industry. New York: Harper & Brothers, 1931. P. 27.

6. А.И. Вахмистров. Роль корпоративных объединений в системе управления региональным строительным комплексом / А.И. Вахмистров, Н.А. Асаул. – СПб.: Стройиздат, СПб., 2003. – 296 с.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**